



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-avgust

436-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi PF–109-son Farmoni ijrosi haqida”gi 395-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ko‘char aktivlarga asoslangan instrumentlarini rivojlantirish orqali kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyati uzluksizligini ta‘minlash imkoniyatlarini yanada oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-avgustdagi PF–109-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 395-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-avgustdagi 395-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF–109-son Farmoni bilan:

Markaziy bank tomonidan Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan birgalikda Xususiyl huquqni unifikatsiya qilish xalqaro institutining (UNIDROIT) Faktoring bo‘yicha namunaviy qonuni asosida O‘zbekistonda faktoring xizmatlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ishlab chiqilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Markaziy bankning pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (keyingi o‘rinlarda faktoring) faoliyatini amalga oshiruvchi faktoring tashkilotlarini tashkil qilish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

faktoring tashkiloti faoliyati nobank kredit tashkiloti sifatida reestrqa kiritish vositasida Markaziy bankda hisob ro‘yxatidan o‘tgandan keyin amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi;

belgilanishicha, 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

quyidagilarga ruxsat etilishi:

mijozning kontragenti norezident bo‘lganda faktoring operatsiyalarini xorijiy valyutada amalga oshirishga;

kredit tashkilotlariga faktoring shartnomalari bo‘yicha sotib olingan pul talabnomalarini qayta sotishga (refaktoring);

pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bo‘yicha taqiqni buzganlik uchun javobgarlik bekor qilinishi;

v) voz kechilgan huquqqa bo‘lgan talabnomalarning ustuvorligini ta‘minlash maqsadida pul talabnomasidan voz kechish to‘g‘risidagi xabarnomalar garov reestrda ro‘yxatga olinishi;

g) qarzdorning roziligisiz pul majburiyatining valyutasi va to‘lov amalga oshiriladigan mamlakat o‘zgartirilishi mumkin emasligi;

Markaziy bankning Faktoring xizmatlari elektron platformasini (keyingi o‘rinlarda Faktoring platformasi) joriy qilish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

kredit tashkiloti bo‘lmagan shaxslar tomonidan tashkil etiladigan faktoring elektron platformalarining axborot tizimlari xavfsizligi, kiberxavfsizlik va ularni IT auditdan o‘tkazish bo‘yicha talablar Markaziy bank tomonidan o‘rnatilishi belgilanganligi;

tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlarining faktoring xizmatlarini ommalashtirish va rivojlantirish, sohaga oid standartlarni ishlab chiqish, faktoring bozori ishtirokchilari o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash maqsadida Faktoring milliy assotsiatsiyasini (keyingi o‘rinlarda Assotsiatsiya) tashkil etish haqidagi tashabbusi qo‘llab-quvvatlanganligi;

belgilab qo‘yilishicha, tashqi savdo operatsiyalarida faktoringni keng qo‘llash imkoniyatini yaratish maqsadida:

2025-yil 1-yanvardan boshlab eksport kontrakti bo‘yicha debitor qarzdorlikni sotib olish to‘g‘risidagi shartnoma asosida:

faktoring xizmatlarini ko‘rsatuvchi kredit tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda moliya agentlari) rezident bo‘lganda, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlar TSOYAEATga eksport kontrakti bo‘yicha valyuta mablag‘larini oluvchi sifatida kiritilishi hamda aktivlarni repatriatsiya qilish to‘g‘risidagi talabning bajarilishini ta‘minlash majburiyati mazkur moliya agentlariga o‘tishi;

moliya agentlari norezident bo‘lganda, aktivlarni repatriatsiya qilish to‘g‘risidagi talabning bajarilishini ta‘minlash majburiyati eksport qiluvchida qolishi, bunda eksport kontraktlari bo‘yicha debitor qarzdorlikni sotib olish shartnomasi asosida norezident moliya agentidan mablag‘ kelib tushganda, aktivlarni repatriatsiya qilish to‘g‘risidagi talab bajarilgan hisoblanishi;

ko‘rsatilgan xizmatlar uchun moliya agentlari tomonidan ushlab qolinadigan pul talabnomasi summasining 10 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdordagi mukofot puli (diskont) debitorlik qarzi sifatida hisobga olinmasligi;

eksport qiluvchining norezidentga (qarzdorga) nisbatan eksport shartnomasidan kelib chiqadigan xorijiy valyutadagi pul talablari evaziga rezident bo‘lgan moliya agenti tomonidan milliy valyutada pul mablag‘lari berilganda, eksport qiluvchilar uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlarining amaldagi tartibi saqlab qolinishi;

faktoring xizmatlari bozorini rivojlantirish “yo‘l xaritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

faktoring xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar belgilanganligi:

faktoring xizmatlari hajmini 3 yil davomida 10 baravarga oshirish;

2026-yil yakuniga qadar davlat ulushi mavjud banklar tomonidan ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari ulushini jami moliyalashtirish hajmida 3 foizga yetkazish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi tijorat banklari manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF–109-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov